

MUSULMON ADABIYOTIDA TAZKIRA JANRINING TARAQQIY ETISHI VA JANR TADQIQIGA POETOLOGIK YONDASHUV

Saydullayeva Dilrabo

tayanch doktorant,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tazkira janrining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti hamda janr xususiyatlari poetologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tazkira janrining ildizlari arab adabiyotidagi “tabaqot” asarlariga borib taqalishi, keyinchalik forsiy va turkiy adabiyotda mustaqil adabiy-biografik janr sifatida shakllangani yoritiladi. Shuningdek, tazkiralarda shoir shaxsi, ijodiy merosi, adabiy-estetik qarashlar va davr adabiy muhitini yoritish tamoyillari poetologik nuqtayi nazardan baholanadi. Tazkira janrining adabiyotshunoslik, biografiya va antologiya janrlari bilan aloqasi ochib beriladi hamda uning Sharq adabiy tafakkuri tarixidagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Tazkira, tazkirachilik, tabaqot, biografiya janri, poetologik yondashuv, Sharq adabiyoti, adabiy muhit, antologiya, shoirlar biografiyasi,

Nomida ilk bor “tazkira” atamasi uchraydigan asar Fariduddin Attor tomonidan yozilgan “Tazkirat ul-avliyo”dir. Ushbu asar nomida “tazkira” so‘zi ishlatilganiga qaramay, u shoirlarning emas, balki so‘fiylarning zikrlaridan iborat manba hisoblanadi. Tazkiraning lug‘aviy va atama jihatdan ma‘nolari “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “zikr etmoq”, “eslatib o‘tmoq” deb aytiladi va quyidagicha izohlanadi: “Tazkira – Yaqin va O‘rta Sharqda adabiyotshunoslik asari. Shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot, asarlaridan parchalar keltirilgan antologiya. Shoirlar haqidagi ma‘lumotlar alohida kichik maqola – fikrlardan iborat bo‘ladi. Unda shoirlarning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, tabiatdagi xarakterli xususiyat, qay darajada shuhrat topganligi, she‘rlaridan bir yoki ikki bayt namuna, shoirga tazkira muallifning ijobiy yoki tanqidiy munosabati, shoir umrining oxiri (vafot etgan bo‘lsa, dafn qilingan joyi) bayon etiladi”⁵⁶, - deb ma‘lumot beriladi.

Bizningcha, odamlar qadim davrlardayoq o‘tmishda yashagan shaxslarning hayoti, asarlari, boshidan kechirgan voqealari, tajribalari hamda san‘at va tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini bilishni va ularni kelajak avlodlarga yetkazishni istaganlar. Aynan shu ehtiyoj biografiya janrining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir. Islomdan avval ham arablar orasida nasab bilan faxrlanish muhim hisoblangan va shu bois nasabnomalar yuritish odati mavjud bo‘lgan. Islom dini nasab bilan faxrlanishni man etgan bo‘lsa-da, eng avvalo Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning, uning ahli va sahobalarining hayotini qayd etish g‘oyasi tazkirachilikning ilk qadami bo‘lib xizmat qilgan. Bu jarayonda “**tabaqot**” deb nomlangan asarlar vujudga kelgan. Arablar bunday asarlarni “tabaqot” deb atagan bo‘lsa, eronliklar va turkiylar ularni “tazkira” deb nomlaganlar. Tabaqot arabcha

⁵⁶ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi



“tabaqa” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, qatlam, tabaqa, avlod ma’nolarini anglatadi. Shuningdek u yigirma, o‘ttiz yoki yuz yillik vaqt oralig‘ini ham ifodalashi mumkin va u muayyan bir davrda yashagan shaxslarning “biografiyasi”, shu ma’noda bir-birining o‘rnini egallagan kishilar avlodlari haqidagi asar bo‘lib, shajaraga o‘xshab ketadi. Farq shuki, shajarada faqat shaxsning nomi va kunyasi berilgan bo‘lsa, tabaqotda batafsil ma’lumot keltirilgan bo‘ladi.

Bizgacha yetib kelgan shoirlarga bag‘ishlangan bunday asarlarning eng qadimgisi Abdulloh Muhammad ibn Sallam al-Jumahiyning (758-846) “*Tabaqot ush-shuarosi*”dir. Ushbu asar arab tilidagi ilk tazkira bo‘lib, muallif Basrada yashab ijod etgan va Xalil ibn Ahmadning shogirdi bo‘lgan. Unga o‘xshash asarlar yozish adabiy an‘anasi XII asrning oxirigacha uzluksiz davom etgan va faqat arab tilida yozilgan.

Ilk arab tazkiralari, asosan, qadimgi davr shoirlari she‘rlari va ular haqidagi qisqa ma’lumotdan iborat bo‘lgani uchun ularda zamondosh shoirlarga yetarli o‘rin berilmagan, ular ko‘proq antologiyalar shaklida yaratilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad - she‘riy namunalarning unutilib ketmasligi bo‘lgan. Tazkira mualliflari tomonidan shoirlarning shaxsiyati va qayerdan ekanligiga alohida ahamiyat berilgan. Qolaversa, arab she‘riyati tadqiqotiga bag‘ishlangan bo‘lsa ham, ammo ba’zilarida arab tilida ijod etgan o‘rta osiyolik qalamkashlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Shulardan biri Abu Mansur Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” nomli mashhur tazkirasidir. Muallifning zamondoshlariga bag‘ishlangan bu tazkira noyob dalillarni qamrab olgani, o‘sha davr shoirlaridan ko‘pchiligining zikrini qayd qilgani bilan faqat arab adabiyotshunosligi uchun emas, balki Movarounnahr va Xurosondagi adabiy muhit haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishda muhim ahamiyatga egadir.

XIII asrning boshida esa ushbu janrning bizgacha yetib kelgan ilk forscha namunasi yaratildi va u Muhammad al-Avfiyning (vaf. taxminan 1232) “Lubob ul-albob” (“Bilimlar mag‘zi”) asari edi. Bu tazkira o‘zida nafaqat 300 nafar ijodkorning biografiyasini jamlaganligi, balki muallifning she‘riyatga oid dastlabki nazariy qarashlarni ifoda etganligi bilan ham nihoyatda qimmatlidir. Chunki tazkira muallifining asar muqaddimasida she‘r va shoir haqida keltirgan mulohazalari, bir jihatdan, asarga kiritiladigan shoirlarni baholash mezonlari vazifasini bajarsa, boshqa tomondan, o‘zidan keyingi davr forsiy adabiyot tazkiralari, xususan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” si hamda Jomiyning “Bahoriston” asari va ular asosida esa Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridan boshlangan boshqa barcha turkiy tazkiranavislik namunalari uchun ham o‘ziga xos namuna bo‘la olganligiga hech bir shubha yo‘q.

Muhammad Avfiy she‘rning mohiyati va qanday bo‘lishi lozimligi haqida so‘z yuritishdan avval masalani she‘rning umumiy doirasi bo‘lgan **adabiyot** tushunchasidan boshlaydi.

Avfiy hattoki payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham: “Alloh yer ostiga xazinalar yashirgan va ularning kalitini shoirlarga ato etgan”, - deb aytganliklarini va dengiz safarining foydasidan xatari ko‘pligi bois ham payg‘ambarimizning o‘zlari tirik mavjudotlarning eng.



donosi bo'la turib, dengiz safariga rag'bat ko'rsatmaganliklarini qayd etadi. Bu bilan u shoirlikning nechog'lik nozik soha ekanligiga urg'u beradi.

Rivoyatlarga ko'ra, islomdan avval arablar sabiy (yettilik) qasidalar bilan faxrlanar, "Saba' al-Muallaqat" ni mukammallikda tengsiz sanab, ularni oltin suvi bilan kiyiklarning terisiga yozib, Ka'ba devorlariga osib qo'ygan edilar. **Hijr** surasining 87-oyati nozil bo'lgach, bu qasidalar qadrsizlanib, she'rning nufuzi ham pasayganligini e'tirof etadi. Islomdan avvalgi johiliya davrida qabilalar o'rtasida keskin raqobat mavjud bo'lib, she'r muhim targ'ibot vositasi sifatida qo'llanilgan. Islomning nozil bo'lishi bilan esa ham diniy yetakchi, ham davlat boshlig'iga aylangan Payg'ambarimiz she'rni taqiqlamagan, biroq uning mazmunini o'zgartirgan va uni islomiy qadriyatlarni targ'ib etish yo'nalishida qayta shakllantirishga uringan. Payg'ambarimiz **Hasson ibn Sobit, Ka'b ibn Zuhayr va Abdulloh ibn Ravohah** kabi shoirlarni himoya qilgan hamda ularga **joiza** nomi ostida moddiy ko'maklar bergan. Hatto Ka'b ibn Zubayr o'z qasidasini o'qib berganida unga egnilaridagi ridolarini ham yechib berganlar. Shu sabab ham shoirning qasidasi "Qasidatun-Burda" nomini oladi va islomiy adabiyotning tamal toshiga aylanadi. Adabiyot tarixidagi ushbu favqulodda voqeani **ramziy** hamda **amaliy (pragmatik)** jihatdan talqin qilish mumkin. Amaliy darajada bu hodisa she'riyatning **oqlanishi**, ya'ni eng oliy darajada rag'batlantirilganini anglatadi. Ramziy jihatdan esa shoirning ulug'ligi — aniqrog'i, **uning asari** — eng ishonchli makonga, ya'ni **Payg'ambarimiz ridolari ostiga** joylashtiriladi. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vahiy deb taqdim etgan so'zlarini raqiblari she'r, ya'ni aldov sifatida talqin qilishga urgan bo'lsalar-da, u Vahiy va o'z Kalomi bilan **shoir emasligini qat'iy bildirgan**. Payg'ambarimizning "rido bilan yopish" ishorasi rahm-shafqat va she'riyatga bo'lgan hurmat ifodasi bo'lib, shu bilan birga, butun **So'z madaniyatini** ham Payg'ambar ridolari ostida himoya qilishni anglatardi. Chunki bu madaniyat keyinchalik ulkan Sharq-Musulmon mintaqasi doirasida gullab-yashnadi. Qolaversa, yuqoridagi rido voqeasi, o'z navbatida, shoir va ijodkorlar haqida ma'lumot beruvchi eng asosiy manba bo'lmish tazkira janriga ham poetologik jihatdan qayta yondashishni zaruratga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000–2005.
2. Majolis un-nafois / Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1961.
3. BROWNE, Edward, KAZVINI, M., Muhammed (1906). The Lübü'l Albâb (First Part) of Muhammad Awfî, London: Brill Leiden Publication.
4. İlk dönem fars tezkirelerinin mukaddimelerinde şiirin mahiyeti. Eski türk edebiyati araştırmaları dergisi. Cilt: 8, Sayı: 4 Aralık 2025

